


Луҳманов Ғашиод

МАЛАКА ОШИРИШ ТИЗИМИДА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ
ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ
ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ:
МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ



Юқорида тилга олинган усуллар ўқитувчилар томонидан куни узайтирилган руҳларда олиб бориладиган машғулотлар жараёнида қўлланилса, ўқувчиларнинг китобхонликка ҳаваси ортиши билан бир қаторда, ўқиган асарларини мазмунини чуқур тушуниш, англашларига, кўпроқ билимларни ўзлаштириш, бу билимлардан кундалик фаолиятларида фойдаланишлари учун тurtки бўлади.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MEHNAT DARSLARI SAMADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Luxmanov D.B.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatga tayyorlash, ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. SHu sababli mehnat ta'limi jarayonini o'quvchilarda ushbu yosh uchun bilim, mehnat, axloqiy, estetik, iqtisodiy, ekologik va aqliy imkoniyatlarini aniq mehnat jarayonlarida rivojlantirishga qaratilgan, natijada ularni mehnatga tayyorlashni keyingi sinflarda davom etilishi uchun zarur aloqadorlik hosil qilinadi.

Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limi darslarida o'quvchilar asosan ishlab chiqarish texnologiyalari mahsulotlari, turli va mahalliy materiallar bilan ishlaydilar.

O'quvchilar turli materiallar bilan ishlash darslarida turli materillarni to'plash, quritish, saqlash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, ularni ishlatishda foydalaniladigan asbob-uskunalardan foydalanish qoidalari, turli materiallardan applikasiya tayyorlash texnologiyalarini bilishlari kerak.

Boshlang'ich sinflarda ish materiallarining mazmuni, hajmi va usullari o'quvchilarning amaliy ishga tayyorgarlik bosqichiga mos kelishi zarur. O'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishda faqat soddalashtirish yo'li bilan borish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bunday yo'l bilan borish o'quvchilarning aqliy rivojlanishi ta'minlay olmaydi. Har bir mavzuni o'rganishda soddadan murakkabga qarab borish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflarda turli materiallari bilan ishlashga o'rgatishda quyidagi ish turlariga bo'linadi.

Turli materiallar bilan ishlash.

- a) Applikatsiya va mozayka ishlari.
- b) Loy va plastilin bilan ishlash.
- v) Turli materiallar bilan ishlash
- g) Tabiiy materiallar bilan ishlash

Turli materiallar bilan ishlashga o'rgatish o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashga xizmat qilib, ularni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, ahloqiy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishda g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Mehnat darslarida o'quvchilar turli materiallar bilan ishlash haqida maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarni egallaydilar, borliqni va tabiatni estetik jihatdan idrok etishni o'rganadilar va ularning fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurini rivojlantiradi, ijodiy qobiliyatini o'stirishga, dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Shaxsni har tomonlama kamol toptiradi.

Boshlang'ich sinflarda turli materiallari bilan ishlash mehnat ta'limi vazifalari qatoriga quyidagi vazifalarni kiritish mumkin: o'quvchilarni tabiatdagi, tevarak-atrofdagi narsa va voqealarga estetik munosabatni tarkib toptirish, ulardagi go'zallikni his qila bilishga, tushunishga hamda shu his va tushunchalarni hayotga tadbiiq etishga o'rgatish; tabiatga nisbatan muvofiq va emotsional sezgiriklni o'stirish; muntazam va maqsadga muvofiq ravishda ko'rib-olishni, rang sezishni, kompozitsion madaniyatni, fazoviy fikrlashni, fantaziyani, ko'rishni tasavvur qilish va kombinatsiyalash, ijodiy vazifalarni aniq obrazlarga hal qilishni rivojlantirish; turli materiallar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish; ularda

tabiatga nisbatan emotsional idrok, ijodiy qobiliyat, did, tasavvurni o'zlashtirishga qaratish; turli turli materiallardan turli o'yinchoqlar va ko'rgazmalar yasashga o'rgatish; turli materiallar asosida turli o'yinchoqlar va ko'rgazmalar yasashda ijodiy texnik malakalarini rivojlantirish.

Turli materiallar bilan ishlash mashg'ulotlarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda estetik, badiiy va ijodiy tarbiya berishdir. Estetik tarbiya – bu o'quvchilarning hayotdagi, tabiatdagi, san'atdagi kishilarning munosabatlaridagi go'zallikni to'liq idrok etish qobiliyatini tarbiyalash va go'zallik qonunlari asosida ijod etishni o'zlashtirishdir. Zotan go'zallik kishilarning aqliga, qalbiga, irodasiga ta'sir qilib, ma'naviy dunyosini boyitadi.

Turli xil turli materiallarni o'quvchilar dastlab o'qituvchi rahbarligida sayr vaqtda to'playdilar. Sayr vaqtda o'qituvchi har bir to'plangan material haqida kerakli tushunchalar va ularni yig'ish, qanday saqlash borasida zarur bo'lgan ko'rsatmalarni beradi. Mazkur ishlarning o'z vaqtida bajarilishi, turli materiallardan foydalanish mashg'ulotlarining samarali o'tishida katta ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida o'qituvchidan va o'quvchilardan katta ma'suliyat talab qiladigan jarayondir. Mashg'ulot uchun kerak bo'ladigan turli materiallarni qanchalik ko'p tuman bo'ladi. Turli materiallarni to'plash jarayonida o'quvchilar atrofidagi o'simlik dunyosi, hashoratlar bilan tanishadilar, daraxtlar, gullar navlarini, nomlarini, shakllarini bilib oladilar. Tabiatni qo'riqlash, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uni asrab-avaylash masalalariga alohida e'tibor berish ham o'rgatish lozimdir. Tabiat bilan har qanday uchrashuvdan: yozgi kanikul va bolalar oromgohidagi mehnat hamda tabiatshunoslik darslaridagi ekskursiyalardan turli materiallarni to'plash maqsadida foydalanish mumkin.

Turli xil turli materiallarni to'plash va ular bilan ishlash tabiatshunoslik darslari bilan bevosita aloqadordir.

Turli materiallarni to'plash bo'yicha uyushtirilgan ekskursiyalarda bolalar tabiatni qo'riqlash qonunlari bilan amalda tanishadilar. Ular tabiatni qo'riqlash bu turli aloqalarni bilishga asoslangan tadbirlarning butun bir kompleksidan tarkib topishini bilib oladilar.

Ilk yoshlikdan boshlab o'quvchilarda ona tabiatga qiziqish va muhabbatni, undagi go'zallikni ko'ra bilishni tarbiyalash kerak. Turli materiallar bilan ishlash ularni tabiatni tushunchalarning aniqligini o'zlashtiradi.

Mehnat natijalarining muvaffaqiyatli bo'lishi bir qator shartlarga bog'liq. O'quvchi o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirmas ekan, uning malakasi hech qachon to'liq bo'lmaydi. Nazoratning yo'qligi ko'pincha xato va nuqsonlarning mashqlar jarayonida ortib borishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida yetilmagan harakat va usullarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQIDAGI AYRIM TOVUSHLAR TALAFFUZINI KORREKSIYALASH

Husniddinova B.

Chilonzor Pedagogika kolleji o'qituvchi
Inson hayotida juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha darslar
amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqarilgan
O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususan
metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi. Boshlang'ich sinflar
o'tiladigan darslarning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining qanchalik to'liq
tanlanishiga bog'liq.

Metod - atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, muayyan maqsadga erishish, barcha
amaliy va nazariy o'zlashtirish usullarining majmuidir. Ammo fanning o'zi kabi o'qish
metodlari ham rivojlanishda bo'ladi. Misol uchun eski maktablarda o'qish quruq yod
metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozirda esa izohli o'qish asosida olib boriladi. Yod